IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

OILANING BOSHLANG`ICH MA'NAVIY-AXLOQIY INSTITUT SIFATIDAGI RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Qurbonova Guzal Saydaxmatovna
Toshkent shahar Sirg'ali tumani
Toshkent davlat pedagogika
universiteti tayanch doktoranti
O`zbekiston tarixi ixtisosligi

Annotatsiya:

Oilaviy institut jamiyatning asosiy bloklari yoki qurilishlaridan biri sifatida tan olingan. Oila universal xarakterga ega, u butun dunyoga institut shakli sifatida tanilgan. Oilaning asosiy rollarining bir qismi bolani shakllantirishdir, chunki u inson bilan bog'langan birinchi ijtimoiy doiradir.Ushbu maqolada oilaning boshlang`ich ma'naviy-axloqiy institut sifatidagi rivojlanish tendentsiyalari haqida soz yuritilgan.

Kalit so`zlar:

oila instituti, jamiyat, insonlarning manfatlari, yashovchanligi, ma'naviy munosabatlar, o`zbek oilasi, jamiyatning taraqqiyot mezonlari, jadidchi marifatparvarlar, oila qoidalari.

Аннотация:

Институт семьи признается одним из основных блоков или конструкций общества. Семья имеет универсальный характер, она известна всему миру как форма института. Одной из главных ролей семьи является формирование ребенка, поскольку это первый круг общения, связанный с человеком.В статье рассматриваются тенденции развития семьи как основного духовно-нравственного института.

Ключевые слова:

институт семьи, общество, интересы людей, жизненная сила, духовные отношения, узбекская семья, критерии развития общества, просвещенная интеллигенция, семейные правила.

Abstract:

The family institution is recognized as one of the basic blocks or constructions of society. The family has a universal character, it is known to the whole world as a form of institution. One of the main roles of the family is the formation of a child, because it is the first social circle connected with a person. This article discusses the development trends of the family as a primary spiritual and moral institution.

Key words:

family institution, society, people's interests, vitality, spiritual relations, Uzbek family, society's development criteria, enlightened intellectuals, family rules.

Oila va uning shakillanishi, oilaning asosini kimlar tashkil etishi hamda bugungi kunda O`zbekistonda oila institutiga berilayotgan e'tibor masalalari siyosiy fanlar doirasida dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Jamiyatda insonlarning manfatlari, yashovchanligi, jamiyatda ma'lum bir statusga ega bo`lib borishida avvalo oila institutining o`rni katta.

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

Oilaning shakillanishi, undagi ma'naviy bilimlarning, qadiryatlarning boyib borishi jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy munosabatlar bilan bevosita bog`liq va shular asosida amalga oshadi [1].

O`zbekistonning chorak asardan ziyod istiqlol davrida o`zbek oilasining ijtimoiy, moddiy va ma'naviy hayotida qator ijobiy o`zgarishlar amalga oshirildi. Oila va uning manfatlari har tomonlama muhofazaga olindi va natijada oilani har tomonlama rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Oila tarbiyasida mazmunan komunistik g`oyalardan voz kechilib, milliy tarbiya mezonlari ishlab chiqildi.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o`zida sinovdan o`tkazadi [2]. Shu jihatdan, oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadiryatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas maskandir. Oila jamiyatning poydevorini tashkil etadi.

Markaziy Osiyoda ishlab chiqilgan oila qoidalari- ma'naviy-axloqiy meros, tarixiy tajriba jamiyatda oilaning o`rnini belgilab berishda muhim omillar sanaladi. Xususan, faylasuf olima M.Xolmatovaning Yosh avlodni kelajakka ishonch hosil qilish uchun avlodimiz ma'naviy axloqiy merosni chuqur o`rganib, o`z faoliyat, iste'dod va qobilyatini hayot yo`nalishini yurt xalq, davlat maqsadi bilan uyg`unlashtirish lozim" [3] degan fikri buni asoslaydi.

Jadidchi marifatparvarlar yangi davr va yangi tuzim uchun kurashni, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, oila asosini to`g`ri qurmay turib va yosh avlodni to`laqonli to`g`ri yo`lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo`naltirish mumkin emas va oxr-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog`liq [4]. Bizning nazarimizda, oila asoslarining mustahkam bo`lishi, farovonligi va birdamligi jamiyatning taraqqiyot mezonlari bilan chambarchas bog`liq.

Abdurauf Fitrat oilaning jamiat hayotidagi va tarahiyotidagi axamiyati haqida to`xtalib" Bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog`liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunday kuchli va tartibli bo`ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo`l qo`ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostiga qoladi" [5] deydi. Aslida ham, oilalar tarqoqligi, beqarorligi jamiyat va millat taraqiyoti oxir- oqibatda zaiflashib, mushkul ahvolga kelishiga olib keladi, davlat va jamiyat boshqaruvini ham izdan chiqaradi.

Oilashunos tadqiqotchi K. Najmidinova esa , o`z an'analarini avlodlarning boy tajribalari asosiga qurgan va ularni muntazam boyitib borishga odatlangan, sog`lom ma'naviy-axloqiy muhitga ega bo`lgani natijasida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitda ham o`zligini yo`qotmaydigan, o`z davri bilan hamisha hamnafas va hamkor institut-bu oila ekanligini ta'kidlaydi [6].

A. Muxsiyeva, " Oila huquqiy va ma'naviy axloqiy asoslar negizida barpo etiladi, demokiratik tarbiya negizlariga asos solinadi. Oila muhitida yangi avlodlarning ma'naviy-axloqiy talab va ehtiyojlari qaror topadi, oilaviy an'ana va qadiryatlar shakillanadi" [7] deydi. Aslida ham, oiladagi o`zaro munosabatlar jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy munosabatlarga ham o`z ta'sirini o`tkazmasdan qolmaydi.

Shu ma'noda, oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf odatlarini o`zida sinovdan o`tkazadi. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanal-sada, jamiyatda

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o`zgarib boradi [8].

O'zbekiston Respublikasi prezidenti «O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Hujjat matni O'zAtomonidan keltirilgan.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash bo'yicha asosiy yo'nalishlar etib belgilandi:

- oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;
- zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish;
- demografik rivojlanishni rag'batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish;

Agar tarixga nazar tashlasak , oila Sharqda qadim-qadimdan muqaddas dargoh sifatida qadirlangan. Oila a'zolarida muaayyan turmush tarziga rioya qilib , tajriba ortirib borishi , tejamkor bo`lishi, farzandlar tarbiyasiga qat'iylik va to`g`riso`zlik, ularning odob axloqi va ma'naviy kamol topishi azaldan oilani shakillantirishdagi asosiy vazifa bo`lib kelgan.

Islom Falsafasi bilimdonlaridan biri Rizouddin ibn Faxruddin jamiyat hayoti va rivojlanishiga oilaning o`rni, ahamiyati haqida quydagi fikrni bildiradi: " Insonlarning dinu diyonatlarini tuzatmoq matlub bo`lsa , eng avvalo, go`zal xulqqa ega bo`lmoq ila oilani tuzatingiz!" Oilalar tuzalganidan so`ng din ham, dunyo ham tuzaladi" [9] . Bundan ko`rinadiki, Sharqda qadimdan oila axloqiy mezonlar , bilimlar rivoj topadigan, sayqallanadigan ijtimoiy-ma'naviy institut sifatida baholangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нормуродова М.Қ. Жамият тараққиётидаги маънавий эҳтиёжларнинг фалсафий таҳлили. /Фалс.фан.ном. ...дисс.-Т.:2011.Б 88.
2. Тарбия: (ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия)/ тузувчи М. Н. Аминов, -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2010, Б 320.
3. Холматова М.Оилавий муносабатлар маданиятини такомиллаштириш ва соғлом авлодни тарбиялаш муаммолари:фалф. Фан док... дисс.- Т.:1998.Б 270.
4. Алимова Д. Оила пойдевори ҳақида рисола (асарнинг иккинчи нашрига кириш сўзи). Фитрат. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари.-Т. : Маънавият, 1998, 4-б.
5. Холиқов Э., Сиддиқов Б., Рустамов М., Мирзаев А. Қалбан улғайиш даври.-Т.: "EXTREMUM PRES", 2011 Й. 36-Б.
6. Нажмидинова .К. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни.-Т.: "Адолат", 2016.Б 30.
7. Мухсиева А.Ш . Оилада миллий тарбия жараёнининиг методик асослари. Пед.фан.ном. ... дисс.-Т. : 2005. 21- Б.
8. Тарбия: (ота –оналар ва мураббийлар учун энциклопедия)/тузувчи М.Н.Аминов, маъсул муҳаррир А.М.Мажидов- Т. :Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2010. Б 321.
9. Оила. Илмий маърифий, ижтимоий-психологик журнал. 2005.№3,4 57 б.